

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ SIYOSATIDA BILVOSITA SOLIQLARNING IQTISODIY AHAMIYATI

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal institut

Mustaqil tadqiqotchisi

G‘afforov Shuxrat Nasrievich

Annotatsiya: Maqolada bilvosita soliqlarning nazariy huquqiy asoslariga doir nazariy yondashular ko‘rib chiqilgan, soliqqa tortishda to‘g‘ri soliqlarning nisbatini aniqlash muammosiga e‘tibor qaratilgan. Ularning optimal nisbatini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil qilingan. Chunki bu soliq korxonalarining soliq solish maqsadida ijobiy faoliyat natijasidan bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma‘murchiligi, to‘g‘ri soliq, foyda soltg‘i, aylanma solig‘i, tadbirkorlik subyektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish. Mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirishga va uni xalqaro amaliyotga yaqinlashtirishga qaratilgan islohatlar olib borilmoqda. Soliq siyosatini isloh qilish borasida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari qabul qilinmoqda. Soliq siyosatini isloh qilish va takomillashtirish yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda “Soliq va byudjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-son va O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son qonunlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son, 2022-yil 30-

dekabrdagi “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-287-son Farmonilari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “[O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-471-son qarorlari o‘z aksini topgan. Ushbu me’yoriy hujjatlarda mamlakatimiz soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanib, ularda qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq stavkasining pasaytirilishi, ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun foyda solig‘idan va ijtimoiy soliqdan imtiyozlar berilishi, aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha soliq stavkalarining unifikatsiya qilinishi, mutlaq summada belgilangan soliq stavkalarining kutilayotgan inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda indeksatsiya qilinishi, shuningdek byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlarning to‘liq yig‘ilishiga qaratilgan soliq ma’muriyatchiligiga oid choralar nazarda tutilgan.](#)

O‘zbekiston Respublikasi soliq-byudjet siyosatini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

davlat byudjeti va korxonalar moliyaviy axvolining barkarorligini ta’minlash;

solik siyosatini erkinlashtirish va takomillashtirish;

maxalliy byudjetlarni shakllantirish manbalari bo‘lgan respublika soliqlari bilan maxalliy soliqlar o‘rtasida anik chegarani belgilash;

davlat byudjeti daromadlarini katta kismini mahalliy byudjetlarga berish, ularning daromad manbalarini mustahkamlash.

solik siyosati belgilab bergan chora-tadbirlarni amaliyotga tadbik etuvchi tegishli byudjet-solik mexanizmini ishlab chikish va takomillashtirish.

Yuqorida keltirilgan tendensiyalarning bartaraf etilishi hamda byudjet va makroiqtisodiyot indikatorlarining optimal holati iqtisodiyotning no xom ashyo sohalarida tovar ishlab chiqaruvchilar va aholining kam daromadli qatlamlarini bosqichma bosqich soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish va sharoitlarini tenglashtirish, amaldagi solik kodeksini boshka davlatlarda umumkabil

kilingan talablar va standartlarga moslashtirish yunalishlarida solik siyosatini takomillashtirishni talab qiladi.

Keltirib o'tilganlarni amalga oshirish maqsadida quyidagilarni bajarish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- soliq tushumlari turlarining umumiy sonini chegaralash, ularni baholash usullarini soddalashtirish, foydaga solinadigan soliqning bazasini aniqlash usullarini xalkaro standartlarga moslashtirish yo'nalishlarida soliq qonunchiligi qayta ko'rib chiqish;

- bilvosita soliqqa tortishni inflyatsiya jarayonlariga ta'sirini kamaytirish, ishlab chiqarishni soliqq tortishni pasaytirish;

- bilvosita soliqqa tortishni soddalashtirishga tamaki va alkogol maxsulotlariga aksiz solihini qat'iy stavkalarini kiritish. Aksiz ostidagi tovarlarning ro'yxatini bosqichma bosqich qisqartirishni ta'minlash, hamda respublikadagi ishlab chiqarilayotgan va olib kirilayotgan maxsulotlarga aksiz solig'ini bosqichma - bosqich unifikatsiyalash;

- amaldagi ko'pgina soliq imtiyozlarini bekor qilish. Bu esa teng raqobat sharoitlarini ta'minlash, soliq sohasida korrupsiyani cheklash, soliqqa tortish mexanizmining shaffofligini oshirish, korxonalarining soliqlarni xisoblash ishini soddalashtirish, soliq majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilishni yengillashtirish imkonini beradi;

- soliq sohasida yangi qarorlar qabul qilish va qonun osti hujjatlari va tashkiliy kursatmalarga tez-tez o'zgartirish kiritish amaliyotini qonuniy yo'l bilan cheklash orqali soliq tizimida ko'proq barqarorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish va boshqalar.

Yuqoridagilarni amalga oshirishda soliqlarning funksiyalari yaxshi ishlashi zarur.

Soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: soliqning fiskal funksiyasi, tartibga solish funksiyasi, rag'batlantirish funksiyasi, nazorat funksiyasi, soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash

funksiyasi. Soliqlarning asosiy funksiyasi – fiskal funksiya hisoblanib (lotincha fiscus soʻzidan olingan boʻlib, xazina degan maʼnoni anglatadi), bu funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat koʻrsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir boʻlagini davlat boshqaruvini, mamlakat mudofaasini, umuman noishlab chiqarish sohasini saqlab turish maqsadida undirib olish yoʻli bilan davlat byudjetining daromad qismini shakllantiri – soliqlar fiskal funksiyasining eng muhim elementi hisoblanadi. Soliqlar yuqorida keltirilgan funksiyalari bajarishda maʼlum bir belgilariga koʻra guruhlanadi. Jahon va mamlakatimiz amaliyoti barcha soliqlar asosan quyidagi guruhlarga ajratiladi: bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, resurs toʻlovlari va mulk soligʻi. Shu munosabat bilan bu borada iqtisodchi olimlarning qarashlarini keltirib oʻtamiz. Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va toʻgʻri soliqlarga yoki bevosita va bilvosita soliqlarga boʻlinadi. Toʻgʻri soliqlarni toʻgʻridan toʻgʻri soliq toʻlovchilarning oʻzi toʻlaydi, yaʼni soliqni Soliqlarning guruhlarga ajratilishi Toʻgʻri va egri soliqlarning tarkibi va ularning byudjet daromadlaridagi ahamiyati huquqiy toʻlovchisi ham, haqiqiy toʻlovchisi ham bitta shaxs boʻladi. Toʻgʻri soliq yukini boshqalar zimmasiga yuklatish holati bu yerda boʻlmaydi. Bu soliqlar tarkibiga barcha daromaddan toʻlanadigan soliqlar va mol-mulk (resurs) soliqlari kiradi. Toʻgʻri soliqlardan toʻgʻridan-toʻgʻri daromaddan soliq toʻlanganligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining koʻp qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari oshirilsa, korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari kamaya boradi va oxiroqibatda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Demak, bu guruh tarkibiga kiruvchi soliqlarning stavkalari toʻgʻridan-toʻgʻri iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bogʻliqdir. Egri soliqlarni huquqiy toʻlovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin, soliq ogʻirligini haqiqatdan ham byudjetga toʻlovchilari tovar (ish, xizmat)ni isteʼmol qiluvchilardir, yaʼni egri soliqlarning barchasi bevosita isteʼmolchilar zimmasiga tushadi.

Xulosa va takliflar.

Quyidagi xulosa, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Soliq qonunchiligi va qoidalarining murakkabligi va noaniqligi soliqqa rioya qilishning asosiy muammolaridan biridir. Buni hal qilish uchun taklif soliq qoidalarini har tomonlama tushuntirib beradigan aniq va tushunarli soliq yo'riqnomalarini ishlab chiqishni taklif qiladi. Ushbu yo'riqnomalar soliq to'lovchilar uchun onlayn platformalar orqali oson bo'lishi va soliq qonunchiligidagi har qanday o'zgarishlarni aks ettirish uchun muntazam yangilanib turishi kerak.

Adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.

U Normurzaev .Analiz effektivnosti nalogovyx lgot i preferensiy v podderjke opredelennykh sektorov s selyu dalneyshego povysheniya investitsionnoy privlekatelnosti v Uzbekistane- Ekonomika i obrazovanie,(6), 2021

Нормурзаев, (2021). У. Анализ эффективности налоговых льгот и преференций в поддержке определенных секторов с целью дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности в Узбекистане. Экономика и образование,(6) (2021): 82-86.

Нормурзаев, У. (2023). Мамлакатимизда солиқ тизимида амалга оширилган ислохотлар таҳлили. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(4), 177–183. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss4-pp177-183>.

Normurzaev, U. (2021). O'zbekistonda investitsion jozibadorlikni yanada yaxshilash maqsadida ayrim sohalarni qo'llab-quvvatlashda berilayotgan soliq imtiyoz va preferensiyalarining samaradorlik tahlili. Iqtisodiyot Va ta'lim, (6), 82–86. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss6/a285

Нормурзаев, У. (2021). Способы использования эффективных методов путем предоставления налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика И Образование, (3), 91–95. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/7191